



ABDULLA QAHHOR IJODI MATYOQUB QO‘SHJONOV TALQINIDA

Oqila Ahmadjonova

filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD)

Zebuzar Bahodirova

FarDU filologiya fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi taraqqiyotida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan munaqqid Matyoqub Qo‘shjonovning mohir so‘z ustasi Abdulla Qahhor ijodiga tanqidiy munosabatlarining talqini tahlil qilinadi. Matyoqub Qo‘shjonovning o‘zbek adabiy tanqidiga qo‘shgan hissasi hamda adabiyotshunoslikdagi tadqiqot metodlari maqola markazida turadi. Maqola olimning ijodiy uslubini, badiiy talqin mahoratini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar: Matyoqub Qo‘shjonov, adabiyotshunoslik, adabiy tanqid, ilmiy meros, ijodiy uslub, fojia, talqin, tahlil, qahhorshunoslik.

Matyoqub Qo‘shjonov 40 dan ortiq ilmiy, adabiy-tanqidiy, badiiy, tarixiy biografik xotira kitoblar muallifidir. XX asrda yashagan taniqli yozuvchilar, eng muhim badiiy asarlar haqida olim risolalar, adabiy portretlar, tanqidiy ocherklar yozdi. Abdulla Qodiriy, Oybek, Abdulla Qahhor ijodi talqini va tahlili olim faoliyatining asosidir. Abdulla Qahhor jamiyatning og‘riqli muammolari tasviriga qo‘l urmoqchi bo‘lgan vaqtlarda adabiyotimiz anchagina tajribaga ega edi. Alisher Navoiy dostonlarida romantik bo‘yoqlar asosiy o‘rinda tursa ham, yetakchi obrazlar tasvirida elementlari ustun turar edi. Sovet adabiyotida fojining klassik namunasini Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanida yaratib bergan edi. Alisher Navoiyda fojia romantikani ulug‘lasa, Abdulla Qodiriyda romantika fojiadan kelib chiqadigan ma‘noni ulug‘laydi. Abdulla Qahhor ushbu an‘anani davom ettirsa-da, u tasvirlagan fojialar na uni va na buni takror qiladi. Abdulla Qahhor yaratgan fojialar faqat uning o‘z ijodiy uslubiga mos. Uning bu ijodiy uslubini “Anor” hikoyasida



ham ko‘rishimiz mumkin.¹ Hikoyaning to‘liq mazmuni bilan tanishgan kitobxon asarda dahshatli bir voqea borligiga guvoh bo‘ladi. Matyoqub Qo‘shjonov fojia bo‘lishi uchun aslida asarda o‘lim holati bo‘lishi kerakligini ta‘kidlagan va “Anor” hikoyasida o‘limdan ham yomonroq narsa borligini, bu – mehnatkash kishining sevikli xotining oddiygina istagini bajo keltira olmasdan iztirob chekishi, oqibatda o‘g‘irlik qilishga majbur bo‘lishi...².

Biz qayd qilgan mana shu mazmunning o‘zi Abdulla Qahhor ijodining o‘ziga xosligini dalillashga qodir. Bunday misollardan yana bir qanchasini ham tahlilga tortadigan bo‘lsak, Abdulla Qahhorning deyarli ko‘p hikoyalarida shunga o‘xshash katastrofani uchratamiz. Masalan, uning “Anor” to‘plamidan joy olgan “Bemor”, “O‘g‘ri” hikoyalarida (shuningdek Chexovning “Kulfat” hikoyasini ham namuna sifatida olishimiz mumkin). Aynan mana shu “Kulfat!” hikoyasiga to‘xtalsak, ushbu hikoyani “Anor”ga qiyoslab tahlil qilgan Matyoqub Qo‘shjonov hikoyalarni mazmuni jihatidan bir-biriga o‘xshashini ta‘kidlaydi. Bu o‘xshashlik avvalo mazmunda ko‘zga tashlanadi. “Anor”da oddiy bir mehnatkash boshqorong‘i xotining birgina istagini amalga oshira olmay fojiviy ahvolga tushib qolsa, “Kulfat”da oddiy bir mehnatkash – temirchi usta kasal bo‘lgan xotinini doktorga eltishga ulgura olmay ogir ahvolga tushdi. Biror zodagon, yoki biror general ham temirchi Grisha ahvoliga tushib qolishi mumkin. Bu yerda fojining siri shundaki, temirchi faqat ichimlig-u xotin urish bilan bo‘lib, umrining qanday o‘tganini bilmay qoladi. Endi tushunib, ichmaslikka va urmaslikka shart qilganda xotini o‘lib ketadi. Turobjonga o‘xshab temirchi ham turmush o‘rtog‘i oldida o‘z vazifasini ado etolmaganidan armonda qoladi³. Abdulla Qahhor shunday mahoratli so‘z ustasiki, birgina jumla yoki badiiy detal orqali butun bir voqeaga yoki hodisaga ishora qiladi. Biz “Kulfat” hikoyasini qisman “Bemor”ga ham qiyoslasak bo‘ladi, chunki har ikkala hikoyadagi qahramonlarning hayolida gohida pul muammosi bo‘ladi. Biz buni

¹ Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – B. 41.

² Qo‘shjonov M. Hayot va nafosat. - T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1970. – B. 42.

³ Qo‘shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san‘at nashriyoti, 1988. – B.12



qanday izohlashimiz mumkin? “Bemor”da Sotiboldining xotini og‘rib qolganida, shifoxonaga olib borish kerak bo‘ladi, lekin hikoyada shunday jumla bor:

“...Shifoxona deganda Sotiboldining ko‘z oldiga izvosh va oq podshoning suvrati solingan 25 so‘mlik pul kelar edi”⁴.

Demak, moddiy qiyinchilik tufayli Sotiboldining xotini o‘lib ketdi. “Kulfat”da esa temirchining shunday fikrlari bo‘lgan: kampiri vafot etganidan so‘ng, uning marosimlari uchun ketadigan pullarni o‘ylashni boshlaydi. Insoniyat shu qadar moddiy yordamga muhtoj bo‘ladiki, hatto motam o‘rniga, inson ongiga, birinchi o‘rinda pul kelyapti...

Shu o‘rinda “San’atkor” hikoyasiga ham biroz urg‘u beradigan bo‘lsak, “– Xizmatchisi savod maktabida o‘qiyotgan bir kishini traktorchi savodsiz, desa alam qilmaydimi? – dedi san’atkor o‘zicha bo‘g‘ilib, – “labingdan bo‘lsa olsam, e, shakarlab”, deganim u kishiga yoqmapti, “bo‘lsa” emas, “bo‘sa” emish! O‘zi bilmaydi-yu, menga o‘rgatganiga kuyaman! Senga o‘xshagan savodsizlar “bo‘sa, bo‘masa”, deydi... Ha, albatta, ushbu parchadan ayonki, San’atkor obrazi hikoyada savodsiz, aqli kalta, uzoqni ko‘ra olmaydigan, befarq bir inson sifatida tasvirlangan. Uning xatosini to‘g‘rilagan insonlar, masalan, temirchini olaylik, u ham san’atkorga yoqmaydi. Abdulla Qahhor ushbu hikoyani nega, yozgan o‘zi? Traktorchi bechora faqat qo‘shiqqatorlaridagi so‘zni to‘g‘ri aytishi kerakligini uqtiradi. Sababi san’atkor xalqqa o‘rnak bo‘lishi kerak. Bu hikoyada faqat san’atkor emas, uning yonidagi odamlari ham savodsiz yoki bo‘lmasa, o‘ziga o‘xshagan “kulturniy” odamlardir. “Adabiyot muallimi” hikoyasi ham shunday ma’noda. Har ikki asardagi o‘zlarini dono, bilimdon, madaniyatli qilib ko‘rsatishga intilgan kimsalar o‘zgalarning achchiq istehzolariga, nadomatlariga loyiqdirlar. Bir umrga o‘zgalarga kulgi bo‘lib yashash ham aslida o‘ziga xos fojiaadir.

Abdulla Qahhor hikoyalarida xalqimizning qora kunlarini ko‘rar ekanmiz, o‘tmishda insonlarning qanchalik qiyinchilikda hayot kechirganliklariga guvoh bo‘lamiz. “Bemor” da yo‘qchilik, kambag‘allik, o‘ta soddalik kabi fojialar, “Anor”

Qahhor A. Anor. T.: G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2012. – B. 80.



hikoyasida ham shunday holat, “O‘g‘ri”da ham shunga o‘xshash holat jamiyatning ishonuvchan va haddan tashqari soddaligi, o‘sha davrdagi amaldorlarning insofsizligi, “San’atkor” va “Adabiyot muallimi” (ikkala qahramonning oddiy savollarga javob bera olmaganliklari) hikoyalarida ilmsizlik natijasida har qanday holatda insonning obro‘si hamda hurmati yo‘qolishini ko‘rishimiz mumkin. “Anor”dagi haqiqiy fojining siri, “O‘g‘ri”dagi yig‘i va kulgi birligi, “Ming bir jon” va “Asror bobo”dagi komizm bilan fojia, mutoyiba va yumor mushtarakligi, “Bashorat”, “Millatchilar”. “Boshsiz odam” zaminga yashiringan yozuvchi idieali haqidagi mulohaza va ilgari surilgan fikrlar, nainki adabiyot va tanqid rivoji, balki, ayni vaqtda kitobxon estetik didiga ham ta’sir qiladi.

Abdulla Qahhorning “Anor” hikoyasini Umarali Normatov ham tahlil qiladi. Hikoyaning janr talablariga qanchalik to‘g‘ri kelishi yoki kelmasligi haqida o‘z mulohazalarini keltirib o‘tadi. Qahhorshunoslik O‘zbekistonda adabiyot ilmining muhim tarmoqlaridan biri darajasiga ko‘tarilgan. U haqda tadqiqotlar, monografiya va dissertatsiyalar yaratilgan. P.Qodirov, I.Borolina, H.Abdusamatov, M.Qo‘shjonov, V.Smimova, U.Normatov, A.Rasulov, S.Sodiqov, I.Gafirov, R.Qo‘chqorov hamda boshqa o‘nlab tadqiqotchilar A.Qahhor ijodini tahlil qildilar. Har bir adabiyotshunos adib ijodining muayyan muammolari hamda muayyan adabiy-tanqidiy janr talabi asosida, o‘z uslubi yo‘nalishida o‘rganadi, yozuvchining adabiyotdagi o‘ini belgilashga intiladi. O.Sharafiddinov ular ichida o‘z ovozi, o‘z so‘zi bilan alohida ajralib turadi.

XX asr o‘zbek adabiyotshunosligining tarkibiy qismi – qahhorshunoslikni ham M.Qo‘shjonov tadqiqotlarisiz tasavvur etish qiyin. U A.Qahhorning deyarli barcha asarlarini, ulardagi estetik tamoyillarni keng planda, yangilanib borayotgan fikrlar asosida yangicha uslubda tahlil qildi. Bu hol A.Qahhorning ijodiy individualligini, ya’ni A.Qodiriy, Oybek va boshqa yirik nosirlar ijodidan farq qiladigan qirralarini to‘laroq gavdalantirish imkonini berdi. Tanqidchi o‘quvchiga o‘z tayyor xulosalarini quruq taqdim etib qolmasdan, uni ham faol fikr yuritishga



da'vat etadi, bu uning ijodkorligidan dalolat beradi⁵. Shuningdek, A.Rasulov mustaqillik davri adabiy tanqidining faollaridan biri sifatida o'z tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga ko'p to'xtaldi. Uning "Badiiylik – bezavol yangilik" kitobidan "Abdulla Qahhor va yoshlar" deb nomlangan ikki qismdan iborat tadqiqot o'rin olgan bo'lib, unda yozuvchi asarlarida yoshlar obrazi hamda ustoz va shogirdlar haqida so'z yuritiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qo'shjonov M. Hayot va nafasat. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970.
2. Qo'shjonov M. Abdulla Qahhor mahorati. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.
3. Qahhor A. Anor. T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2012.

⁵ M.Qo'shjonov. Abdulla Qahhor mahorati. – T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1988.